


# Aholi muammolarini “Xonadonbay” o‘rganish ishlarining amalga oshirilishi tanqidiy-tahliliy muhokama qilindi.

Image not found or type unknown



Aholi muammolarini “Xonadonbay” o‘rganish ishlarining amalga oshirilishi tanqidiy-

tahliliy muhokama qilindi.

Termiz shahar hokimi O'ktam To'rayev rahbarligida sektor rahbarlari, shahar Xalq qabulxonasi mudiri birgalikda mahallalardagi beshlik vakillari tomonidan aholi muammolarini uyma-uy yurish orqali o'rganish ishlari yuzasidan tanqidiy muhokama yig'ilishi o'tkazildi.

Muhokama jarayonida shahar rahbari tomonidan aholi muammolarini o'rganish bo'yicha xatlov ishlarini yetarli darajada tashkil etmasdan, sustkashlikka yo'l qo'ygan "beshlik vakillari" mahalla raisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va hokim yordamchilarining faoliyati tanqidiy-tahlil qilindi.

Yig'ilishda, ikki hafta oldin xatlov ishlarini tizimli tashkil etish bo'yicha berilgan topshiriqlarga qaramasdan mas'uliyatsizlik bilan yondashgan ayrim mahalla beshligi vakillariga nisbatan tegishli tartibda intizomiy jazo choralarini qo'llanildi. Bir nechta mas'ullarga ogohlantirish berilib, qat'iy choralar ko'rilishi belgilandi.

Image not found or type unknown

Muhokama yakunida O'ktam To'rayev tomonidan aloqador mas'ullarga uyma-uy yurib xatlov ishlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish va belgilangan muddatda yakunlash bo'yicha topshiriqlar berildi va ijrosi nazoratga olindi.

